



## SAVING INNOVATIVE ECONOMIC MECHANISMS IN SMALL BUSINESSES

**Bahridinova Shakhnozakhon Shukurullayevna**

Andijan branch of Kokand University

Teacher of the Department of "Economics and Finance"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18160725>

### ARTICLE INFO

Received: 29<sup>th</sup> December 2025

Accepted: 05<sup>th</sup> January 2026

Online: 06<sup>th</sup> January 2026

### KEYWORDS

*Small business, innovative potential, innovative activity, economic efficiency, competitiveness, organizational and economic mechanisms, financial support, digital technologies, human capital, sustainable development.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the economic efficiency of mechanisms for increasing innovative capacity in small businesses from a scientific, theoretical and practical perspective. In the course of the research, the impact of organizational and economic mechanisms that stimulate innovative activity, financial support tools, the introduction of digital technologies, and human capital development factors on the activities of small businesses is studied. It also highlights the possibilities of increasing production efficiency, strengthening competitiveness, improving the quality of products and services, and expanding market share by increasing innovative capacity. The article identifies criteria for assessing the economic efficiency of innovative mechanisms in small businesses and justifies the positive economic indicators achieved as a result of their implementation in practice.*

## KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INNOVATSION SALOHIYATNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

**Baxridinova Shaxnozaxon Shukurullayevna**

Qo'qon universiteti Andijon filiali

"Iqtisodiyot va moliya" kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18160725>

### ARTICLE INFO

Received: 29<sup>th</sup> December 2025

Accepted: 05<sup>th</sup> January 2026

Online: 06<sup>th</sup> January 2026

### KEYWORDS

*Kichik biznes, innovatsion salohiyat, innovatsion faoliyat, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash,*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarida innovatsion salohiyatni oshirish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot jarayonida innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda inson kapitalini rivojlantirish omillarining kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, innovatsion salohiyatni*



*raqamli texnologiyalar, inson kapitali, barqaror rivojlanish.*

*oshirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda bozor ulushini kengaytirish imkoniyatlari yoritib beriladi. Maqolada kichik biznesda innovatsion mexanizmlarning iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlari aniqlanib, ularni amaliyotga joriy etish natijasida erishiladigan ijobiy iqtisodiy ko'rsatkichlar asoslab beriladi.*

## **Kirish**

Hozirgi kunda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, online faoliyat va ekologik innovatsiyalar kichik biznes subyektlari uchun juda ham muhim hisoblanmoqda. Shuningdek, kichik biznesning innovatsiyalarga tayanishi uni yirik korxonalariga nisbatan tezroq rivojlanishiga imkon beradi. Me'yoriy resurslarga ega bo'lsa-da, kichik biznes egiluvchan boshqaruv tizimi, fikrlash va bozordagi raqobatga moslashish imkoniyati bilan innovatsiyalarni ijobiy joriy eta oladi. Lekin, kichik biznesda innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmini tatbiq etishda qator qiyinchiliklar ham mavjud. Moliyaviy taqchillik, tajribaning kamligi, yangi texnologiyalarni joriy etishdagi tavakkalchilik va bozorda raqobatning yuqori darajasi tadbirkorlar uchun asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli, biznes vakillariga innovatsion faoliyat yondashuvlarini to'g'ri tanlash, to'g'ri boshqarish va samarali strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir. Innovatsiya – bu o'sayotgan bozor holatidan kelib chiqqan holda mahsulot va ko'rsatiladigan xizmatni mavjud vaziyatga moslashtirish va takomillashtirish uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual salohiyati, uning qarashlari, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va rasionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi. “Innovatsion faoliyat” atamasi negizida, avvalambor, “innovatsiya” so'zi, ushbu so'z negizining o'zida esa “novasiya” so'zi yotadi. Innovatsiya - (ing. innovationas — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy- texnika yutuklari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi. “Innovatsiya” tushunchasi o'zining yangi hayotini “innovatsion kombinasiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida XX asrning boshida Y.Shumpeterning ilmiy ishlarida boshlagan. Shumpeter 1900-yillarda iqtisodda ushbu termini ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi. Y.Shumpeterning “The Theory of Economic Development” asarida innovatsion faoliyat va biznes faoliyatining iqtisodiy o'sishiga ta'siri haqida dastlabki tushunchalarni o'z ichiga oladi. Y.Shumpeterning innovatsiya nazariyasi hozirgi zamonaviy innovatsion boshqaruvga asos sifatida xizmat qiladi. P.Drucker “Innovation and Entrepreneurship” innovatsion boshqaruvni strategik yondashuv sifatida o'rganib uni tahlil qilib, muvaffaqiyatli biznes boshqaruvi uchun muhim omil sifatida ko'radi.

## **Muhokama va muammolar**



Kichik biznes subyektlarida innovatsion salohiyatni oshirish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni tizimli ravishda tashkil etish ushbu subyektlarning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini sezilarli darajada oshiradi. Innovatsion mexanizmlar, xususan, moliyaviy rag'batlantirish, soliq imtiyozlari, grant va subsidiyalar, shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish kichik biznes faoliyatida xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Muhokama jarayonida aniqlanganki, innovatsion salohiyatning yetarli darajada rivojlanmaganligi ko'pincha moliyaviy resurslarning cheklanganligi, ilmiy-texnik bilimlar yetishmasligi hamda innovatsion infratuzilmaning sust rivojlanganligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini joriy etish va inson kapitaliga investitsiyalarni ko'paytirish kichik biznes subyektlarida mehnat unumdorligini oshirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Demak, innovatsion mexanizmlarning samaradorligi ularning kompleks va uzviy amalga oshirilishiga bevosita bog'liqdir.

### **Tadqiqot natijalar**

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarida innovatsion salohiyatni oshirish quyidagi iqtisodiy samaralarga olib kelishini ko'rsatdi:

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi;
- yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish orqali daromadlar hajmi oshadi;
- bozor raqobatbardoshligi kuchayib, eksport salohiyati kengayadi;
- bandlik darajasi va mehnat unumdorligi yuksaladi;
- innovatsion faoliyat hisobiga barqaror moliyaviy natijalarga erishiladi.

Shuningdek, innovatsion mexanizmlarning izchil qo'llanilishi kichik biznes subyektlarining uzoq muddatli strategik rivojlanishini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Kichik biznes subyektlarida innovatsion salohiyatni oshirish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi ularning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda inson kapitalini rivojlantirish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotda innovatsion o'sishning muhim drayveriga aylanib, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga munosib hissa qo'shadi. O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, "2017-2021 yillar uchun Harakatlar strategiyasi" 1 doirasida kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratish, eksport hajmini oshirish va innovatsiyalarni joriy etish uchun qulay muhit yaratishga katta e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha sezilarli natijalarga erishildi. Kichik biznesda innovatsiyalarni qo'llashning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri raqamli texnologiyalarni joriy etishdir. Masalan, elektron tijorat platformalaridan foydalanish, avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisob-kitob tizimlari va onlayn marketing strategiyalari tadbirkorlarga xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar



bilan aloqalarni kuchaytirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, energiya samaradorligi texnologiyalari va ekologik mahsulot ishlab chiqarish kabi yo'nalishlar ham innovatsion yondashuvning ajralmas qismi hisoblanadi. Innovatsiyalarni qo'llash nafaqat iqtisodiy samara keltiradi, balki kichik biznes sub'ektlari faoliyatining ijtimoiy va ekologik jihatlarini ham yaxshilaydi. Masalan, resurslarni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish ekologik zararlarni kamaytiradi, raqamli texnologiyalar esa ish jarayonlarini soddalashtirib, ishchi kuchining samaradorligini oshiradi. Innovatsiyalar tadbirkorlikda yangi imkoniyatlar yaratib, kichik biznesning hududiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Asta sekinlik bilan kichik biznes sub'ektlari sanoatning boshqa muhim tarmoqlariga ham faoliyati oshishib bormoqda. Kichik biznesni rivojlantirishdan yana bir maqsad mamlakatning ma'naviy-tarbiyaviy va madaniy ishlarini yuksaltirish. Chunki kichik biznes ma'naviy-tarbiyaviy va madaniy sohalarini rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shadi. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirishning ma'naviy-tarbiyaviy va madaniy sabablari:

- ❖ an'anaviy xalq amaliy san'ati va badiiy hunarmandchilikning tiklanishiga ko'maklashish; sport va sog'lomlashtirish maskanlarini barpo etish;
- ❖ xususiy o'quv muassasalarini ochish;
- ❖ obodonlashtirish, ko'rkamlashtirish va ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish;
- ❖ bolalar, o'smirlar hamda yoshlar lagerlarini tashkil qilish.

Keyingi 3-4 yil ichida mamlakat iqtisodiyotida davlat ulushini qisqarishi, erkin bozoro mexanizmlarini amal qilishi natijasida kichik biznesning rivojlanishida tub bo'rilish bo'ldi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi ham oshib bormoqda. Ayniqsa, kichik va xususiy korxonalarining ishlab chiqarish tarmoqlaridagi hissasi ortib bormoqda. Bundan tashqari, inson kapitalining rivojlanishi innovatsion salohiyatning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Xodimlarning bilim va malakasini oshirish, kreativ fikrlashni rag'batlantirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash kichik biznes subyektlarida innovatsion muhitni shakllantiradi. Natijada, mehnat unumdorligi oshib, tashkiliy faoliyat samaradorligi yuqori darajaga ko'tariladi. Umuman olganda, kichik biznes subyektlarida innovatsion salohiyatni oshirish mexanizmlarining izchil va kompleks qo'llanilishi nafaqat alohida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion faol kichik biznes subyektlari iqtisodiy diversifikatsiya, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishda yetakchi kuchga aylanadi. Shu bois, kichik biznesda innovatsion mexanizmlarni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimiy e'tiborda bo'lishi lozim.

## **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kichik biznes subyektlarida innovatsion salohiyatni oshirish mexanizmlarining joriy etilishi ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Innovatsion faoliyatga asoslangan boshqaruv yondashuvlari kichik biznesning bozor talablariga moslashuvchanligini



kuchaytirib, ichki va tashqi raqobat sharoitida barqaror faoliyat yuritish imkonini beradi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni qo'llash ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, innovatsion salohiyatni oshirish kichik biznes subyektlarida resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlab, xarajatlarni qisqartirish va mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini yaratadi. Bu esa daromadlarning oshishi, moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi hamda investitsion jozibadorlikning kuchayishiga olib keladi. Innovatsion yondashuvlar asosida yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish esa bozor segmentlarini kengaytirish va iste'molchilar ehtiyojini to'liqroq qondirishga zamin yaratadi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi 2017-yil 7-fevraldagi PF - 4947-sonli farmoni.
2. Арипов, А.Х. *Kichik biznes va tadbirkorlik: nazariya va amaliyot.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
3. Axmedov, B.B. *Innovatsion rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Ismoilov, F. *Kichik biznesda innovatsion faoliyatni boshqarish.* – Toshkent: Universitet Nashriyoti, 2019
5. Hamidov, R., & Tursunov, M. *Raqamli transformatsiya va innovatsion salohiyatni oshirish mexanizmlari.* – Toshkent: Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi, 2021